

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA ANVAR OBIDJON
ASARLARINI O'RGATISH TEXNOLOGIYASI**

Jamilova Norjon Abduxoliq qizi

Ozbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Shodiyev Faxriddin Teshayevich

*Ozbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori v.b., Boshlang'ich
ta'lim kafedrası mudiri, Ilmiy rahbar*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar adabiyotining yorqin namoyandasi Anvar Obidjon ijodini boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish texnologiyasi ilmiy-metodik nuqtai nazardan yoritilgan. Asar tanlash mezonlari, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, dars jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish yo'llari, shuningdek, Anvar Obidjon she'riyati orqali bolalar tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, o'qitish texnologiyasi, bolalar adabiyoti, innovatsion metodlar, tafakkur, didaktika.

Boshlang'ich ta'lim – insonning umrbod bilim olish yo'lida qo'yilgan birinchi muhim odimlaridandir. Bu bosqichda o'quvchilarga o'zbek adabiyotining mo'tabar vakillari ijodini tanishtirish, estetik didini shakllantirish va fikrlash madaniyatini rivojlantirish muhim burch maqomidadir. Ayniqsa, bolalar dunyosiga yaqin, ularning tafakkuriga mos, obrazlar orqali tarbiyaviy g'oyalarni singdira oladigan Anvar Obidjon asarlari bu borada ibrat ko'zgusidir.

O'zbek bolalar adabiyotining taniqli vakillaridan biri – Anvar Obidjondir. U o'zining bolalar idrokiga, fikr olamiga mos asarlari bilan bolalar adabiyotining rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan. Anvar Obidjon hikoyalari bolalarning dunyoqarashlaridan, qiziqishlaridan kelib chiqib yozilgan. “Anvar Obidjon poetik olami” monografiyasining muallifi Y. Solijonovning ta'biri bilan aytganda, ijodkorning nasriy asarlari lirik asarlaridan aslo kam emas. Shu sababli Anvar



Obidjon barcha bolalar qalbiga yo‘l topa oladi. Anvar Obidjon hikoyalarini o‘qigan ota-onalar, katta yoshli insonlar ham o‘zlarini bolalar olamiga kirib qolgandek his qilishadi. Anvar Obidjon hikoyalarida bolani tarbiyalaydigan, zukkolikka chorlaydigan jihatlari nihoyatda ko‘p. Ayniqsa, "Topqir bolajon" nomli hikoya keltirilgan. Anvar Obidjonning "Topqir bolajon" hikoyasi bolalar tafakkurini o‘stirish, ularning topqirlik, mantiqiy fikrlash va analitik yondashuvlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu hikoya aqlni charxlashga yo‘naltirilganligi bilan boshqa hiyoyalardan ajralib turadi.

Hikoya qahramoni Diyorbek oddiy matematik masalani noodatiy tarzda tahlil qilib, sinfdagi tengdoshlari orasidan ajralib chiqadi. Ustoz tomonidan berilgan savol bola miyasini harakatga keltiradigan, mantiqiy xulosa chiqarishga undaydigan bo‘lib, bu Anvar Obidjon uslubining o‘ziga xos xususiyatidir. Asarda muallif murakkablikni emas, balki o‘quvchiga yaqin va tanish hayotiy misollar orqali fikrlashga chorlaydi.

-Pedagogik jihatdan, bu hikoya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida: mustaqil fikrlash, matematik mantiqni rivojlantirish, isbotlash va tushuntirish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘z fikrini asoslash va to‘g‘ri bayon qilish kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi.

-Estetik jihatdan, bolalarga quvnoq ohangda taqdim etilgan kichik masala orqali bilim olish jarayoni zerikarli emas, balki maroqli va zavqli kechishi mumkinligi ko‘rsatib beriladi.

"Topqir bolajon" hikoyasi Anvar Obidjon ijodining eng samarali namunalaridan biri bo‘lib, u nafaqat adabiy, balki metodik vosita sifatida ham o‘qituvchilar tomonidan dars jarayonida keng foydalanilishi mumkin bo‘lgan asardir. Hikoyada zukkolik, diqqat va tafakkur, o‘ziga ishonch, aql-zakovat va bilimga intilish, mehnatsevarlik va izlanish kabi hislatlar ochib berilgan. Shu bilan birga hikoyalarining so‘ngida bolalarning fikrini bilish uchun savollar ham keltirilgan. Shu savollar orqali bolalarning aqlini charxlash ko‘zda tutilgan. Savollarning har biri bolalarning fikrlashlarini yaxshilash uchun, dunyoqarashlarini kengaytirish uchun



nihoatda mukammal va mulohaza qilish uchun ajoyib savollarga to'p puxtalik bilan qo'yilgan.

Asar tanlash mezonlari

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Anvar Obidjon asarlarini tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilinishi maqsadga muvofiq:

- Yoshga mosligi – murakkab syujet va til vositalaridan holi bo'lishi;
- Tarbiya beruvchi g'oya – har bir asarda axloqiy, estetik va vatanparvarlik ruhidagi fikrlar mavjud bo'lishi;
- Qiziqarli syujet – o'quvchining e'tiborini tortuvchi, hayotiy voqealar asosida yozilgan bo'lishi;
- Obrazlarning yorqinligi – bolalar ongida jonli tasavvur uyg'otadigan obrazlar bo'lishi.

Dars jarayonida o'qitish texnologiyasi

- Kichik guruhlar bilan ishlash – asarni o'rganish davomida guruhli muhokama, rollarga bo'lib o'qish;
- Klash texnologiyasi (insert) – o'quvchi asarni o'qib, nimalarni bilgan, nimalarni bilmaydi Anvar Obidjon asarlarini o'rgatishda quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi:
- Konseptual xaritalar tuzish – asar qahramonlari, voqealar ketma-ketligi, asosiy g'oya xaritada aks ettiriladi;
- Venn diagrammasi – turli obrazlar yoki voqealarni taqqoslash orqali farq va o'xshashliklarni aniqlash;
- Rolga kirish (dramatizatsiya) – o'quvchilar asar qahramonlarini rollar orqali jonlantiradi.

O'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda ijodiy yondashuv

Anvar Obidjon asarlarini o'rganish jarayonida quyidagi ijodiy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish mumkin:

- She'r yozish – muallif uslubida kichik she'rlar yaratish;
- Asarga davom yozish – syujet davomida boshqa yakunni tasavvur qilish;
- Rasm chizish – obrazlar yoki voqealarni tasvirlash;



- Savol-javob o'yinlari – asar mazmuniga oid viktorinalar o'tkazish;
- Dramatik sahna tayyorlash – qisqa sahnalarni sinf oldida namoyish qilish.

Tarbiyaviy ahamiyati

Anvar Obidjon asarlarining har biri muayyan tarbiyaviy g'oyani ilgari suradi. Masalan, "Qaldirg'och" she'rida sadoqat, "Bo'rilar maktabi"da do'stlik va haqiqat, "Oltin baliq"da halollik va mehr-oqibat singari fazilatlar bolalarga obrazlar orqali yetkaziladi. Bu jihatlar yosh bolalarning axloqiy tafakkurini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

“Topqir bolajon” hikoyani o'rgatishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar:

1. Muammoli ta'lim texnologiyasi. O'quvchilarga savol yoki topshiriq orqali muammo qo'yiladi va bu o'quvchilarni muammoni mustaqil hal qilishga undaydi.

Qo'llanilishi:

– Omon bobo savoliga o'xshash masala o'quvchilarga muammoli vazifa sifatida taqdim etiladi.

– O'quvchilar mustaqil fikrlaydi, yechim izlaydi.

Natija: Mustaqil fikrlash, analitik yondashuv, mantiqiy xulosa chiqarish rivojlanadi.

2. “Insert” texnologiyasi (bilaman – bilmoqchiman – o'rgandim). O'quvchilar matnni o'qishdan avval, davomida va keyin bilimlarini tahlil qiladi.

Qo'llanilishi:

– Hikoyani o'qishdan avval: “Topqir bola haqida nimalarni bilasan?”

– O'qish jarayonida: “Yangi nimalarni bilding?”

– O'qib bo'lgach: “Endi nimani o'rganding?”

Natija: O'quvchi bilimini tahlil qiladi, yangi ma'lumotni mavjud bilimiga bog'laydi.

3. Klaster usuli (mavzulashtirish texnologiyasi). Ma'lumotlar atrofida g'oyalar uyumi yaratiladi, asosiy tushunchalar tarmoqlanadi.

Qo'llanilishi:



– “Topqir bola qanday bo‘ladi?” degan markaziy tushunchadan fikrlar ajratib yoziladi.

Natija: O‘quvchilarning izchil va tizimli fikrlashi shakllanadi.

4. “Aqliy hujum” texnologiyasi. O‘quvchilar berilgan muammoga bog‘liq holda tez va erkin fikr bildiradilar.

Qo‘llanilishi:

– Dars boshlanishida: “Zukkolik nima?”, “Topqir bola qanday bo‘ladi?” kabi savollar.

Natija: Erkin fikrlash, o‘z fikrini qo‘rqmasdan ayta olish ko‘nikmasi shakllanadi.

5. Rolga kirish (dramatizatsiya) texnologiyasi. Hikoya personajlari o‘quvchilar tomonidan jonlantiriladi.

Qo‘llanilishi:

– O‘quvchilar Diyorbek, Omon bobo, sinfdoshlar rolini ijro etadi.

– Hikoyani sahna ko‘rinishiga aylantirish orqali dars interfaollashadi.

Natija: Nutq rivojlanadi, personaj tahlili, ifodali o‘qish va aktyorlik qobiliyatlari o‘sadi.

6. “Fikrlar charxi” texnologiyasi. O‘quvchilar kichik guruhlarda fikr yuritib, o‘z qarashlarini almashadi.

Qo‘llanilishi:

– Hikoya asosida guruhlar “Topqirlikka olib boradigan fazilatlar” haqida fikr almashadi.

Natija: Hamkorlikda ishlash, ijtimoiy faollik, fikrni baholash shakllanadi.

“Topqir bolajon” hikoyasini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: Darsni qiziqarli va interfaol qiladi, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, tarbiyaviy va metodik maqsadlar amalga oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Anvar Obidjonning bolalar uchun yozgan asarlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘rgatish — ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, topqirlik, ifodali nutq, badiiy-estetik did kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bunday yondashuv orqali bolalar



faqatgina asarni o'qib chiqish bilan cheklanmay, uning mazmunini chuqur anglaydi, tahlil qiladi va real hayot bilan bog'lay oladi. Eng asosiysi, ular Anvar Obidjon ijodidagi insonparvarlik, mehr-oqibat, zukkolik kabi ijobiy xislatlarni qalbiga singdirib, yaxshi inson bo'lib voyaga yetadi. O'qituvchi dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llagan taqdirda, ta'lim va tarbiyada yuqori natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anvar Obidjon. "Topqir bolajon". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2018.
2. Anvar Obidjon. "G'amxo'r bola", "Yaxshi bola bo'lish osonmi?" – Toshkent: Sharq, 2020.
3. Rasulov Sh. va boshqalar. Boshlang'ich ta'limda adabiy o'qish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2021.
4. Yoqubov M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Jo'rayeva G'. Adabiy o'qish darslarida interfaol metodlar. // "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 2022, №2.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent: 2021.
7. Yusupova N. Zamonaviy dars: texnologiya va innovatsiyalar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020.
8. Qurbonova M. Bolalar adabiyotining o'qitish metodikasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
9. Solijonov Y. Anvar Obidjonning poetik olami. Monografiya. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
10. Internet manbalari:
 - www.kitob.uz (Anvar Obidjon asarlari to'plami)
 - www.ziynet.uz (pedagogik texnologiyalar bo'yicha ochiq ma'lumotlar)